

LAQABLARNING O‘ZBEK ANTROPONIMIKASIDAGI O‘RNI

Xusanova Zarifa

Samarqand davlat universiteti, PhD Samarqand, O‘zbekiston,

Email: zarifahusanova8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Til tizimida onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar son va sifat jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Antroponimlar tarkibida kishi ismi, familiyasi, otasmi asosiy nomlar sifatida sanalsa, taxallus, nisba, unvon, kunya kabilar “ikinchii nom” tarzda ifodalanadi. Ana shunday ikkilamchi nomlar qatorida laqablar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kichik tadqiqotimizda o‘zbek antroponimikasida muhim ahamiyat kasb etadigan laqablar, ularning lingvistik xususiyatlari, shakllanishi va hosil bo‘lish yo‘llarni va omillari, boshqa ikkilamchi nomlar – taxallus, nisba, kunya va unvonlardan farqli va o‘xshash jihatlari, tarixiy va madaniy ildizlari, badiiy, so‘zlashuv uslubidagi o‘rni va farqli jihatlari, qo‘llanish usullari, tarixiy va zanonaviy laqablarning farqli xususiyatlari, zamonaviy nikneymlar haqida tahlillar berilgan. Shuningdek, laqablarning ijtimoiy-madaniy ko‘rinishlari, ijobiy, neytral va salbiy laqablarning ma‘naviy ta‘siri hamda nebez tushunchasi borasida ham ayrim fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponimika, laqab, taxallus, nisba, kunya, ikkilamchi nom, nebez, niknaym, ijobiy, neytral va salbiy mazmundagi laqablar.

THE ROLE OF NICKNAMES IN UZBEK ANTHROPONYMICS

ABSTRACT

Onomastic units, particularly anthroponyms, hold a significant position in terms of both quantity and quality. If a person’s name, surname and patronymic are considered as the main names in the context of anthroponomy, then nicknames, nisba, title, kunya are defined as “secondary names”. Nicknames hold a notable significance among such secondary names. In this small research work, nicknames that are of an important significance in Uzbek anthroponomy, their linguistic features, the methods and aspects of formation and creation, differential and similar features with other secondary names, such as pseudonym, nisba, kunya and titles, historical and cultural roots, role in artistic and spoken languages and their differences, methods of using,



differences between historical and modern nicknames, studies of modern nicknames are discussed. Particularly, there are also some opinions about socio-cultural appearance of nicknames, spiritual impact of positive, neutral and negative nicknames and the concept of nebez.

Key words: onomastics, anthroponomy, nickname, pseudonym, nisba, kunya, secondary name, nickname, nicknames with positive, neutral and negative connotations.

РОЛЬ НИКНЕЙМОВ В УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИКЕ АННОТАЦИЯ

Ономастические единицы, в частности антропонимы, занимают значительное место как в количественном, так и в качественном отношении. Если в качестве основных имен в контексте антропонимики рассматриваются имя, фамилия и отчество человека, то прозвища, нисба, титул, куня определяются как «второстепенные имена». Прозвища имеют заметное значение среди таких второстепенных имен. В этой небольшой исследовательской работе рассмотрены прозвища, имеющие важное значение в узбекской антропонимике, их языковые особенности, способы и аспекты формирования и создания, дифференциальные и сходные признаки с другими второстепенными именами, такими как псевдоним, нисба, куня и титулы, исторические и культурные корни, роль в художественном и разговорном языках и их различия, способы употребления, различия между историческими и современными прозвищами, исследования современных прозвищ. В частности, существуют мнения о социокультурном облике прозвищ, духовном воздействии положительных, нейтральных и отрицательных прозвищ и понятии небез.

Ключевые слова: ономастика, антропонимия, прозвище, псевдоним, нисба, куня, вторичное имя, никнейм, прозвища с положительной, нейтральной и отрицательной коннотацией.

Istiqlol yillarida o'zbek onomastikasida antroponimlarga oid yirik ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu borada o'z tadqiqini kutayotgan bir qator masalalar ham mavjud. Xususan, o'zbek tili antroponimik tizimida ism, otasim, familiya, taxalluslar qatori katta o'rin tutadigan, til, madaniyat, tarix va etnografiya,





sotsiolingvistikaning yechimini kutayotgan dolzarb masalalari bilan bevosita aloqador laqab va niknom kabi onomastik birliklar maxsus to‘planmagan, deyarli o‘rganilmagan yoki kam tahlil qilingan. Bunday onomastik birliklarni tadqiq etish o‘zbek nomshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, tegishli ismni (antroponim – ism, laqab, kunya, unvon, niknom..) o‘rganishning dolzarbligini inson zotining o‘ziga bo‘lgan doimiy qiziqishi, shuningdek, zamonaviy fanda antropotsentrik yondashuvlarning ustuvor ekanligi ham belgilab beradi. Zero, “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar” [1]¹.

Laqablarni ijtimoiy-siyosiy maqsadda o‘rganish laqab beruvchi shaxs yoki ijtimoiy guruhning siyosiy-ijtimoiy, madaniy va shaxsiy maqsadlarini bilish, laqab qo‘yish jarayonini lingvomadaniy va lisoniy sabablarini, uning mexanizmlarini o‘rganish, laqab egasi bo‘lgan shaxs va ijtimoiy guruhning ijtimoiy mavqeyini aniqlash, laqab tanlanishining ijtimoiy, badiiy-estetik, psixologik, lingvosemantik asoslariga aniqlik kiritish, laqablarning ijtimoiy munosabatlarda hamda badiiy asar tili va mazmunida tutgan o‘rnini, kommunikatsion jarayondagi lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish maqsadida amalga oshiriladi. Shu jihatlari bilan laqablarning lisoniy tadqiqi, nihoyatda, muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon va turkiy tilshunoslikda antroponimlar tizimida muhim o‘rin turgan ikkilamchi nomlar, xususan, laqablarning tadqiq tamoyillari, ularning lingvistik tahliliga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, rus tilshunosligida ham bu yo‘nalishda bir necha tadqiqotlar mavjud. Bulardan A.M.Selichev, V.K.Chichagov, G.V.Tropin, V.A.Gordlevskiy, N.A.Rodinalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. Laqablar alohida antroponimik tadqiqot obyekti bo‘lgan ishlar ham mavjud. Qayd qilinganlardan tashqari, turli xalqlar tilidagi laqablar haqida bir qator kitoblar, ko‘p sonli maqolalar ham mavjud. Jumladan, turkologiya doirasida ozarbayjon tilshunoslari A.Qurbonov, A.M.Pashayev va qoraqalpoq tilshunosi

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2019-yil, 22-oktabr.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6


Y.N.Xodjalepesova, S.Zakirovlarning kuzatishlari diqqatga molik. A.Pashayevning fikricha, laqab shaxs ismiga tirkaladigan qo‘shimcha nom sifatida kishining biror belgisi yoki kasb-koriga ishora qiladi. Olim laqablarni boshqa yondosh hodisalardan farqlashda V.A.Nikonovning “norasmiy”lik fikriga tayanib ish ko‘radi.

O‘zbek tilshunosligida laqablarni, jumladan, ikkilamchi nomlar sirasiga kiruvchi taxallus, kunya, unvon va nisba nomlarning o‘rganilish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Milliy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy ahamiyat kasb etuvchi bunday nomlar o‘zbek xalqi tarixida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, ilk yozma yodgorliklarimiz bo‘lgan qadimgi toshbitiglardan ham, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ham bunday nomlarni uchratishimiz hamda ularning lingvistik tahlilini ham ko‘rishimiz mumkin. Turk olimi Abulfayz Kuli Amano‘g‘lining ma‘lumot berishicha: “Devonu lug‘at-it turk”da (DLT) jami 110 ta kishi otlari uchragani, ularning 43 tasi laqab, taxallus hamda Qoraxoniylar hukmdorlari va lashkarboshilarga berilgan unvon (laqab) ekani ma‘lum [2; 5-13]². Mahmud Koshg‘ariy laqab va unvonlarga, ularning ma‘nosi va shaxslarga berilish sabablari haqida alohida to‘xtaladi. Jumladan, “*tegin, tigin*”, “*tutug, tarkan*” laqab va unvonlarini u atroflicha izohlaydi hamda DLTdagi ma‘lumotlardan qadimgi turkiy tilda laqablar keng tarqalgani va ular ma‘lum ijtimoiy-informativ xususiyat kasb etganini bilamiz. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning “**Tarixi muluki ajam**”, “**Tarixi anbiyo va hukamo**” kabi tarixiy asarlarida ham qadimgi Eron shohlari, qadimgi Sharq va Yunonistonning olim va anbiyolarining laqab va unvonlari xususida bahs yuritilgan o‘rinlar mavjud bo‘lsa, “Nasoyim-ul muhabbat”, “Majolis-un nafois” tazkiralarda esa ayni tarixiy shaxslar – ayrim mashoyixlar, shoir va tarixchilarning kunyasi, taxallusi, nasabidan tashqari laqablari ham keltirib o‘tilgan o‘rinlar ko‘zga tashlanadi [3]³.

Hozirda o‘zbek tili toponimlari, antroponimlari bo‘yicha salmoqli fundamental tadqiqotlar yaratilganini, atoqli otlarning izohli, imloviy lug‘atlari tuzilganini, laqablar

² Amano‘g‘lu, Ebulfaz Kuli. Divanu Lu‘gat-it-Turk’daki Kişi Adlari Üzerine. A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 15. Erzurum, 2000. - S.5-13.

³ А.Навоий. Тарихи мулуки ажам. - https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Tarixi%20muluki%20ajam.pdf (Fevral, 2022); А. Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо (Ботирхон Валихўжаев ва Қобилжон Тоҳиров таъдиди). -Самарқанд: Зарафшон, 1994. -68 Б. А. Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 10-jild, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 648 bet. А. Navoiy, Majolis un-nafois, To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 9-jild, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 768 bet.





va taxalluslar xususida ham jiddiy tadqiqotlar vujudga kelganini qayd qilish mumkin. Jumladan, E. Begmatov, T.Qorayev, V.Vohidov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, T.Nafasov, N.Husanov, N.Uluqov, G'.Sattorov, I.Xudoynazarov, A.Ishayev, R.Sapayev, Y.I.Avlaqulov, M.Rashidova, D.Xudoyberganova, S.Kenjayeve, Sh.Nizomovalarning tadqiqotlarida atoqli otlarning o'ziga xos jihatlariga munosabat bildirib o'tilgan. Bu ishlarda antroponimlarning tarkibiy qismi sifatida laqablarlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari yoritilgan, atoqli otlar, jumladan, laqab va taxalluslarning yasalishi, etimologiyasi, nominatsion-motivatsion asoslari haqida muayyan xulosalar berilgan. A.Ishayev, R.Sapayev, Y.I.Avlakulov, M.Rashidova hamda X.Qodirovalar laqablarga oid alohida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.


Jumladan, yirik onomast-olim E.Begmatov laqablarni atoqli ot deb baholaydi, faqat bunda ismni antroponimlarning asosiy kategoriyasi, laqab, taxallus va familiyalarni esa "qo'shimcha nominativ kategoriyasi" [4]⁴ deb nomlagan. Chunki shaxsni nomlashning asosiy vositasi ismdir, boshqa usullar esa antroponimik nominatsiyada uni to'ldiruvchi qo'shimcha vazifalarni o'taydi. E.Begmatovning "O'zbek tili antroponimikasi" nomli monografiyasida o'zbek antroponimlarining tarixi, etnolingvistik, sotsiolingvistik jihatlarini tadqiq qilingan; ismlardan tashqari o'zbek laqablari, taxalluslar, familiya va otasmlari ham keng tahlilga tortilib, laqablar alohida bob sifatida o'rganilgan. Olim laqablarni ma'no va motiviga ko'ra 10 guruhga ajratib tasnif qilgan [5; 13-14]⁵. *Laqab* atamasiga "shaxsga uning atrofdagilari tomonidan beriladigan, kishining xarakterli belgi-xususiyatini ifoda qiluvchi, asosan, shaxs ismi bilan birga qo'llanuvchi nom" [6;44]⁶ shaklida izoh beradi. Xususan, M.Rashidova o'zbek tilidagi laqablarini to'plash va tadqiq qilish bilan shug'ullangan. Ushbu izlanishlarning mahsuli sifatida "O'zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari" nomli risola ham nashr qildirgan. Ushbu risolada laqablarning tasnifi, tuzilishi, yasalishi, etimologiyasi va uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan [7]⁷. Y.Avloqulov ham antroponimik birliklar ustida izlanishlar olib borgan

⁴ Begmatov Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965.

⁵ Begmatov Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965, 13-14-бетлар

⁶ Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Ташкент: Фан, 1965, 44-б

⁷ Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2008. – 72 б.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bo‘lib, ism, laqab, taxalluslar antroponimik qatlamni tashkil qilishini [8;19]⁸ ta’kidlaydi. Mazkur muallifning ham laqab va taxalluslarning xususiyatlari haqida maqolasi mavjud.


Umuman, laqablarning lingvistik va tashqi omil ta’siri borasida bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo, til antroponimik tizimida alohida o‘rin tutadigan laqablar, ularning tarixiy va ijtimoiy ko‘rinishlar, ijtimoiy-ahloqiy xususiyatlari, laqablarning berilish sabablari va boshqa sifatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilish lozimdek, nazarimizda. Quyida tadqiqot o‘tkazish lozim deb hisoblaydigan ayrim jihatlarni sanab o‘tishni lozim deb topdik. Jumladan, laqablarning onomastik birlik sifatidagi lisoniy maqomini, vazifalarini, kommunikatsiya jarayonida tutgan o‘rnini aniqlash; o‘zbek tilidagi laqablarining ijtimoiy, lisoniy-badiiy taraqqiyoti va takomili jarayonlarini ochib berish; laqablarning boshqa antroponimik birliklar – ism, otatism, familiya, unvon kunya bilan bog‘liqlik va farqli jihatlarni yoritish; laqablarlarning kasbiy xoslanishi, lug‘aviy, nominatsion-motivatsion asosiga ko‘ra tasnifi va tahlilini berish; laqablarni lingvomadaniy va tarixiy-etimologik jihatdan leksik-semantik tahlil qilish va modellarini yoritish; laqablarning virtual olamdagi shakli – nikneymlarning paydo bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish. Bundan tashqari ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jihatlar mavjud.

Laqablar insonga ismi, familiyasi yoki otaismi kabi doimo birga yashaydigan ikkilamchi nom sanaladi. Ilmiy manbalarda laqab so‘zi quyidagicha sharhlangan: **“laqab”** – arabcha so‘z bo‘lib, **“ikkinchi nom”**, **“taxallus”**, **“laqab”** ma’nolarini anglatadi. Biror xususiyatiga ko‘ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab beriladigan qo‘shimcha nom; shuningdek, ma’lum maqsadda o‘zgartirib olinadigan nom [9]⁹, deya izoh keltiriladi. Laqabning bir tushunchasi **“ikkinchi nom”** bo‘lsa, demak, nom tushunchasi va uning laqab tushunchasidan farqi izoh talab qiladi. **“Nom”** – forscha so‘z bo‘lib, **“ot, ism”**; **“shon-shuhrat, obro‘”** ma’nolarini anglatadi [10]¹⁰. Bu so‘z keng ma’noga ega bo‘lib, avvalo, shaxs yoki narsalarga qo‘yilgan ot, ismni anglatishi bilan **“ism”** leksemasiga sinonim hisoblanadi: *Zarifa, Samarqand, Boychibor* kabi.

⁸ Авлақулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012. – Б.19.

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет. Keyingi o‘rinlarda lug‘at nomi ЎТИЛ shaklida berib boriladi..

¹⁰ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

Ammo “*ism*” – arabcha soʻz boʻlib, “*nom, kishi oti*”, “*shaxsiy nom*”[11]¹¹ degan maʼnoni anglatishi bilan nom tushunchasiga nisbatan torroq maʼno kasb etadi va odatda, bu soʻz faqat shaxs uchun ishlatiladi. Qadimgi turkiy tilda, jumladan, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻat-it turk” asarida keltirilgan “*atag*” soʻzi laqab maʼnosida qoʻllangan: “*Atag*” – nom; laqab. *Qul ati anin boldi qulqa atag*// *tapugʻ qilsa tūn-kūn ula bolsa tag.* – *Qul oti shuning uchun qulga laqab boʻldiki, u togʻ-u toshda tun-u kun ibodatda boʻlishi zarur.* (QBN – 124a)[12]¹²... Demak, “*atag* – laqab” soʻzlari oʻzaro sinonim boʻlib, bir tushunchani ifodalaydi.

“Ikkinchi nom” tushunchasini ifodalashiga koʻra *laqab* tushunchasi *taxallus* tushunchasi bilan bir xil funksiyaga egadek koʻrinadi. Yuqoridagi manbada keltirilgan izohga tayanadigan boʻlsak ham, laqabning yana bir maʼnosida “*taxallus*” tushunchasi ham mavjud. Xususan, “*taxallus*” – arabcha soʻz boʻlib, “oʻz-oʻzini qutqarish, ozod qilish, xalos boʻlish” maʼnolarini anglatadi. Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va shu kabilar) yoki siyosiy arbobning oʻzi uchun tanlab olgan boshqa, ikkinchi nomi [13]¹³. Masalan, *Lutfiy, Navoiy*. Baʼzida *taxallus* ham oʻzga shaxs tomonidan qoʻyilishi mumkin: Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli avval oʻzi tanlagan “*Qalandar*” *taxallusi* bilan ijod qilgan boʻlsa, keyinchalik ustozi Munavvar qori Abdurashidxonov unga “*Choʻlpon*” – “*Tong yulduzi*” deb *taxallus* tanlab beradi [14]¹⁴ va shoir shu nom bilan nafaqat mashhur boʻlgan, balki oʻzbek adabiyoti va tarixida ham munosib oʻrin egallagan. Ammo *taxallus* laqabdan farqli oʻlaroq *ism* kabi rasmiy maqomga ega boʻladi va ularda *taxallus* egasining botiniy olami bilan bogʻliq motiv aks ettiriladi. Oʻzbek tiliga Islom dini kirib kelishi onomastik birliklar, xususan, antroponimlar tizimiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Buning natijasi oʻlaroq “*kunya*” lanish jarayonini aytish mumkin boʻladi. “*Kunya*” (kuniya) – arabcha soʻz boʻlib, “*laqab, nom*” degan maʼnoni anglatadi va kishining avlod-ajdodini, nasl, nasabini bildiruvchi kishi ismiga hurmat yuzasidan qoʻshib ishlatiluvchi soʻz, nom. Xususan, arablarda “*abu*”, “*bint*”, “*ibn*”, “*ummu*” soʻzlari *kunya* hisoblanadi [15]¹⁵. “*Unvon*” – arabcha soʻz boʻlib, “*adres*”, “*sarlavha, nom*”, “*belgi, ramz*” kabi maʼnolarga ega. Bu soʻz koʻp maʼnoli

¹¹ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 232-бет.

¹² Қадимги туркий тил луғати. Тузувчи: Қ.Каримов. Тошкент: Mumtoz soʻz, 2009, 112-бет.

¹³ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 4-жилд, 15-бет

¹⁴ <https://ziyouz.chulpon>

¹⁵ ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2-жилд, 432-бет.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

bo‘lib, bu so‘z kishiga biror ish-faoliyat sohasida alohida xizmatni yoki mutaxassislik darajasini e‘tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan nomni anglatadi va u ham antroponimik tizimda ikkinlamchi nom sanaladi. Bundan tashqari, Islom dunyosida nisba tushunchasi ham mavjud bo‘lib, manbalarda u quyidagicha izohlanadi: “*nisba* (arabcha *nsbī* - “munosabatlar”, “bog‘lanish”) arab-musulmon nomining bir qismi bo‘lib, shaxsning nasl-nasabi, etnik, diniy, siyosiy, ijtimoiy mansubligi, tug‘ilgan joyi yoki yashash joyini va hokazolarni bildiradi. Odatda *nisba* morfologik ko‘rsatkich - oxiridagi “va” (arabcha -iy) qo‘shimchasi sanaladi. Masalan, *Buxoriy*, *Samarqandiy*, *Nasafiy* kabi. An’anaviy tarzda o‘rnatilgan tartibga ko‘ra, *nisba* kunya, alam, nasab va laqabdan keyin ismning eng oxirida qo‘yiladi va ular ham ikkilamchi nomlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Laqablar shakllanishining lingvistik va ekstrolingvistik omillari mavjud. Juladan, boshqa tillar kabi o‘zbek tilida ham laqablar hosil bo‘lishining lisoniy omili muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kishi ismlarining buzib, o‘zgartirib talaffuz etilishi natijasida fonetik va grammatik mexanizm eng faollaridan biridir. Xususan, endi tili chiqqan bola katta yoshdagi aka-opalarining ismini ayta olmay notog‘ri, aniqrog‘i o‘z me‘yorida talaffuz qilishi orqali kishida oilaviy yangi laqab paydo bo‘ladi. Masalan, “*Toyir*”ni “*Toy*”; “*Karim*”ni “*Tayim*” “*Muborak*”ni “*Yubalak*” deb talaffuz qilishi kattalarning ham bolaga taqlidan kishilarga bola tilida murojaat qilishiga sharoit yaratadi va o‘z-o‘zidan yangi laqab paydo bo‘ladi. Shuningdek, *Nilu* (Nilufar), *Mamush* (Ma‘mura), *Shurik* (Shuhrat) – ismlarning erkalatish, suyish maqsadida qisqartirib yoki o‘zgartirib talaffuz qilinishi orqali paydo bo‘lgan murojaat laqablar; *Dilap* (Dilafuz), *Toyir* (Tohir) – ismlarning shevadan kelib chiqib (aslida bu holat ayrim tovushlar (f, h) ning asl turkiy xalqlarga xos emasligi tufayli talaffuzda to‘liq aytilmasligi bilan bog‘liq) orfoepik me‘yor bilan talaffuz qilinishidan paydo bo‘lgan murojaat laqablar ham fonetik-orfoepik mexanizm asosida hosil bo‘lgan. Bunday laqab laqablanuvchiga bilvosita aloqador bo‘ladi, ularda, asosan, subyekt munosabati ifodalanadi. Laqablarning shakllanish mexanizmida til qurilishining qaysi qismlari ishtirok etishi mumkinligi ham alohida tadqiq talab etadi. Avvalo, laqablarni hosil qiluvchi birliklarning turkumi, ya‘ni morfologik jihatiga to‘xtalaylik. Laqablar belgi-xususiyat va harakat-holatlariga asoslanishini inobatga olsak, asosan, ot (*it*, *ilon*, *chayon*, *do‘ppi*, *shapka*, *quloq*, *oyoq* va *atoqli otlar ham*) va sifat (*qopag‘on*, *chuchchi*, *sariq*, *zolim*,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

qiyshi)q turkumiga oid leksik birliklar (qisman ravish, fe'l, taqlid so'zlar, undov so'zlar, modal so'zlar) bilan ifodalanadi.

Shuningdek, aytish joizki, laqablar har doim ham bir so'zdan iborat bo'lmashligi mumkin. Shunga ko'ra laqablar tuzilishi ikki xil bo'ladi: **Sodda laqablar**. Bir asosdan tashkil topgan laqablar: Umar *zakunchi*, *Kobra* (Shavkat Qudratovich), *Qora* amma, *Tuya* amaki, *giroy* (Muzaffar), *ma'lim* (Samadov – Robiyaning dadasi), Rashid *abzi* (*O'tkir Hoshimov*, "Ikki eshik orasi" romani qahramonlari). **Murakkab laqablar**. Ikki va undan ortiq leksik birlikdan tashkil topadi va bir ma'no butunlikni tashkil etadi. Murakkab laqablarni bevosita quyidagicha tasniflash mumkin: qo'shma so'z bilan ifodalanuvchi: *Oqpodsho*, Orif *oqsoqol*, *Xumkalla*, *Mirzaterak*; juft so'z bilan ifodalanuvchi: *Shaldir-shuldir*, *Kirdi-chiqdi*; takroriy so'z bilan ifodalanuvchi: *Xir-xir*, *Shu-shu domla*; Ibora bilan ifodalanuvchi: "Bir qop yong'oq", "Yetti o'lchab, bir kesar" (Sharifning xotini); Sintaktik birliklar bilan ifodalanuvchi: "Yotsa turmas" (Sharif), *kuzurlarning kuzuri* (Yaxshiboyev), *sun'iy yo'ldoshlar* (Yaxshiboyevga qo'shni ikki hamxona bemor – Baxshulla Ostonov va uning sherigi).

Tildagi har qanday ismning o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik ma'no komponentlari mavjud bo'lib, ular qatoriga, birinchidan, maxsus nomlash motivlarining mavjudligi, tilda nom mavjudligining o'ziga xos tomonlari (ismlarda boshqa lingvistik belgilarga ko'ra nominativ xususiyatining kuchliligi) kiradi. Ismning zamonaviy idrok qilinishi, ismning tarixi, uning etimologik asoslari ham shular jumlasidandir. Boshqa bir tomoni esa jamiyatda ismning lingvistik belgi sifatida mavjud bo'lishi uchun maxsus shart-sharoitlarning borligidir, ya'ni ismning madaniy va tarixiy assotsiatsiyalari, o'zi nomlovchi obyekt bilan o'ziga xos munosabati, obyektning nomi va uning bilinish darajasi kabi lingvistik va ekstralingvistik shart-sharoitlar bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari, tildagi salbiy, ijobiy va neytral semantikali so'zlarning laqabga ko'chishida ma'noviy motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Har qanday nom ma'lum motivga asoslanadi. Laqab bilan shaxsning ismi, familiyasi, uning mental va jismoniy xususiyatlari o'rtasida bevosita yoki bilvosita ma'noviy aloqalar mavjud. Chunonchi, motivatsiya predmetlarga nom berilayotganda ularning belgisini bildiradi va ana shu predmetga nom berilayotganda turtki beradi. Motivatsiya nominatsiyadan oldin paydo bo'ladi. Laqabdagi qo'shimcha madh etish, maqtash, ulug'lash, kamsitish, ayblash, salbiy bo'yoqda ko'rsatish, yashirin ma'no berish kabi xususiyatlarning mavjudligi uni






inson yoki hayvonga “yopishtirishga” asos bo‘ladi. Boshqa onomastik birliklar qatori laqablar ham yasaliş jihatidan o‘zining maxsus lisoniy bazasiga, ya’ni birlik, usul va vositalariga ega emas. Tildagi mavjud apellyativlar, so‘z yasalişining affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik usul va modellar laqablar uchun lisoniy baza bo‘lib xizmat qiladi.

Ismlar kabi laqab kabi “ikkinchi nom”lar ham ijobiy mazmun kasb etishi lozim. Bu esa ularning shakllanish omillariga bog‘liq bo‘lib, laqab qo‘yuvchi kishining ishtimoiy-ahloqiy ma’naviyatiga bog‘liq sanaladi. Laqab berish qadimiy unsur sanaladi va har doim ham faol qo‘llanib kelingan. Ularning salbiy ma’no kasb etish ko‘payib ketishi yuzasidan jamiyat ijtimoiy-diniy nazorat o‘rnatilib kelingan. Jumladan, Islom olamida qo‘llaniladigan “nebez” tushunchasi shunday ahloqiy nazorat tizimining bir ko‘rinishi sanaladi. Laqab shaxsga asl ismidan alohida berilgan ikkinchi ism; faxriy unvon; xalifa va sultonlarning hukmronligini ifodalaydigan unvondir. Tilshunolar laqabning tilda hukm surishini “*nebez*” holati bilan izohlaydilar. *Nebez* “birovga kamchiligini yashirgan holda ehtiyotkorona murojaat qilish” [16]¹⁶, degan ma’noni anglatadi. Biroq keyinchalik, “sifatlash, ta’riflash” ma’nosini anglatuvchi va umuman, “kishilarning mehr sifatida olinib, jamiyatda uni ulug‘laydigan ism” ma’nosini bildiruvchi na’t laqab uchun ham qo‘llanila boshlagan. Shunday qilib, laqab “maqtov yoki tanqidni ifodalovchi ism yoki sifat” ma’nosini olgan. Bunga misol sifatida buyuk o‘zbek adibi Alisher Navoiyni misol keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiyning yuqorida misollar keltirilgan asarlarida qo‘llanilgan laqablarni tom ma’nodagi badiiy matndagi laqablar deb bo‘lmaydi. Buyuk adib ilk o‘rta asrlar va musulmon Sharqining buyuk siymolari, mashoyixlar, din arboblari va tarixiy shaxslariga doir biografik ma’lumotlarni keltirar ekan, ularga davr jamoatchiligi (xalq) yoki shaxslarning o‘zlari tomonidan qo‘yilgan laqablarni keltirgan, xolos. Aslida bu nomlarning aksariyatini to‘la ma’noda laqab deb emas, laqab-epitet deb atash mumkin. O‘sha qadimgi davrlarda amalda bo‘lgan antroponimik an’analar ta’sirida yuzaga kelgan. Ya’ni, bu laqablar shaxsga asl ismidan alohida berilgan ikkinchi ism; bu hol **nebez** – “birovga kamchiligi yashirgan holda ehtiyotkorona murojaat qilish”, degan ma’noni anglatadi. Bu hol “sifatlash, ta’riflash” ma’nosini anglatuvchi va umuman “odamlarning mehr sifatida olinib, jamiyatda uni ulug‘laydigan ism” ma’nosini bildiruvchi na’t holatidir va u laqab

¹⁶ <https://islamansiklopedisi.org.tr/lakap>





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

uchun ham qo‘llanila boshlagan. Shunday qilib, laqab o‘rta asrlarda “maqtov yoki tanqidni ifodalovchi ism yoki sifat” ma‘nosini olgan. Qolaversa, yuqorida keltirilgan laqablar o‘sha shaxslarga muallif (Navoiy) tarafidan berilmagan, u badiiy tafakkur mahsuli ham emas. Ammo bu laqablar tarixiy shaxslar haqida yaratilgan badiiy asarlarning emotsional bo‘yog‘i vazifasini bajaradi. Afsuski, bugungi kunda laqab va boshqa ikkilamchi nomlarning aksariat qismi salbiy ma‘no kasb etadi va inson sh‘ni, qiymati hamda obro‘yiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham laqablar va umuman, ikkilamchi nom haqida tadqiqotlar o‘tkazish hamda ijobiy mazmun kasb etadigan laqablarning xususiyatlarini to‘laroq ochib berishga harakat qilish lozim. Muloqot jarayonida salbiy laqablar bilan murojaat qilish inson psixologiyasiga ham ta‘sir qilmay qolmaydi.

Laqab tanlanishining muhim omillaridan biri motivatsiyadir. Har qanday nom ma‘lum motivga asoslanadi. Bu jarayon **motivatsiya** deb yuritiladi. Ya‘ni, motivatsiya so‘zlar o‘rtasidagi ularning motivlanganligini namoyon etuvchi aloqa, motivatsion aloqa (munosabat)ning o‘zidir. Laqab bilan shaxsning (hayvonning) ismi, familiyasi, uning mental va jismoniy xususiyatlari o‘rtasida bevosita va bilvosita ma‘noviy aloqa mavjud. Chunonchi, motivatsiya predmetlarga nom berilayotganda ularning belgisini bildiradi va ana shu predmetga nom berilayotganda turtki beradi. Motivatsiya dalil keltirish, isbotlash, turtki berish ma‘nosini anglatib, nominatsiyadan oldin paydo bo‘ladi. Demak, nomlashda ma‘lum belgi-xususiyatlarga asoslanish jarayoni motivatsiyadir. Laqabdagi qo‘shimcha madh etish, maqtash, ulug‘lash, kamsitish, ayblash, salbiy bo‘yoqda ko‘rsatish, yashirin ma‘no berish kabi xususiyatlarning mavjudligi uni inson yoki hayvonga “yopishtirishga” asos bo‘ladi. Boshqa onomastik birliklar qatori laqablar ham yasaliş jihatidan o‘zining maxsus lisoniy bazasiga, ya‘ni birlik, usul va vositalariga ega emas. Tildagi mavjud apellyativlar, so‘z yasovchi affikslar, usul va modellar laqablar uchun lisoniy baza bo‘lib xizmat qiladi, deyish mumkin.

Ma‘lumki, laqablar boshqalar tarafidan nomlaluviçi murojaat quroli sanadi. Ammo kishi o‘z-o‘ziga ham laqab qo‘yish mumkin. Bugungi globallashgan axborot texnologiyalar zamonida bu hol ommalishib borayapti. Jumladan, virtual olamdagi laqablar – nikneymlar shular jumlasidandir. Hech qanday to‘siqsiz ijtimoiy tarmoqlarda kishilar, ayniqsa, yosh avlod o‘zi yoqtirgan nomlar – nikneymlar tanlamoqda. Shunday ekan nikneymlarni laqablarning bir ko‘rinishi sifati o‘rganish bugungi kunning dolzarb





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

ahamiyatli tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Bizningcha, nikneymlarning asosiy xususiyati o‘z-o‘ziga erkin laqab tanlash hisoblanadi. Bunda, nikneym egasining madaniy, ma’naviy va ilmiy saviyasi, laqablanuvchi kishining orzu va umidlari hamda dunyoqarashi muhim omildir.

Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, Internetdagi muloqotlarda qo‘llaniladigan nikneym-laqablar bir yoki ikki so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Tub so‘zdan yoki qo‘shma so‘z va so‘z birikmalaridan iborat taxalluslar, ko‘pincha, atoqli otlar yoki “aniqlovchi+aniqlanmish” qolipidagi birikmalar bo‘lib, laqab kichraytirish-erkalash (“sevimli”, “ofatijon”, “bo‘zbola”, “sheryigit”, “muloyim”, “yoqimtoy yigitcha”, “oshiq”, “ko‘pni ko‘rgan”, “inson do‘sti” kabi) yoki norasmiy-erkin murojaat (“telba”, “shaharlik olifta”, “terminator”, “botir bola”, “qo‘rqmas”, “sheryurak”, “iskaptopar”) ma’no-mazmunlarini tashishi mumkin.

Turdosh otlar ham nikneym sifatida ishlatiladi. Virtual muloqot ishtirokchilari, ko‘pincha, hayvonlar va qushlarning nomlariga murojaat qilishadi, bu holda “xo‘roz”, “sherlar qiroli”, “yo‘lbars”, “bo‘zbo‘ri”, “tulkiyoy”, “toshbaqa”, “lochin” kabi nikneymlar vujudga keladi. Ayrim yoshlar (o‘zbek bo‘lsa-da) esa xuddi shunday mazmun tashuvchi ruscha, inglizcha yoki boshqa til variantlaridan ham foydalanishadi, “dikiy volk”, “seriy volk”, “krasavchik”, “chelovik pauk”, “bogatiy”, “prinsessa”, “life”, “zizi”, “miss...” va hokazo. Internetdagi muloqot yoki o‘yin ishtirokchilari, odatda, lotin alifbosidan foydalanadilar, hozir mamlakatimizdagi 30 yosh atrofidagi yosh avlod vakillari lotin yozuvini qo‘llasa (bu kontingent eng faol virtual muloqotda bo‘ladi), 40 yosh atrofidagilar va undan katta yoshdagilar kirill alifbosidan foydalanadilar.

Ijtimoiy hayotda tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tufayli turli ma’naviy qadriyatlar yaratiladi, tarqatiladi va o‘zlashtiriladi. Bu o‘rinda kishilar orasida nutqning shakl va mazmunini belgilaydigan, uni ma’lum qoliplar doirasida ushlaydigan, jumladan, kishilarning axloqiy-ma’naviy xususiyatlari, o‘zligi, odobi va turmush tarzini belgilaydigan ijtimoiy axloq va uning shakllari muhim ahamiyatga ega. Kishilarga qo‘yiladigan laqablar ham ana shu nuqtayi nazardan fazilatlar va illatlarga qarab beriladi. Fazilatlar va illatlarning miqdori chegaralanmagani kabi tildagi laqablar ko‘lami ham chegaralanmagan.

Laqablar keng nutqiy iste’molda bo‘lgan til sohalari – jonli so‘zlashuv va shevalardir. Tadqiqot davomida Xorazm shevasida, shuningdek, Samarqand viloyati






jonli soʻzlashuv tilidagi laqablar oʻrganilganda, Xorazmda kishining shaxsi, avvalo, u mansub boʻlgan urugʻ, toʻpning laqabi, keyin shaxsning personal ismi va laqabi bilan aniqlanishi qayd etildi va hozirga qadar bu tizim muomaladan chiqmaganini, aksincha, jonlanib, avj olganini koʻrsatadi. Samarqandda talabalar va maktab oʻquvchilari orasida oʻtkazilgan soʻrovnomalardan maʼlum boʻldiki, yoshlar orasida laqablarning sinxronlashuvi kuchlidir. Laqablarning klassik shakllari jonli til bilan bogʻliq boʻlsa, nikneymlar virtual dunyodagi kommunikativ aloqa bilan bogʻliq boʻlgan laqablarning bir koʻrinishidir. Nikneymlar soʻzlovchining oʻzi tanlashi bilan real hayotdagi laqablardan biroz farq qiladi, ammo uni laqab bilan birlashtiruvchi nuqtalari ikkilamchi nominativligi bilan bogʻliqligi, insonning shaxsiy jismoniy-fiziologik koʻrsatkichlariga aloqador ekanligi, sirlilik, maxfiylik elementlarini tashishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining oʻttiz yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi // “Xalq soʻzi”, 2019-yil, 22-oktabr.
2. Amanoğlu, Ebülfez Kuli. Divanu Luğat-it-Türk'deki Kişi Adları Üzerine. A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi. Sayı 15. Erzurum, 2000. - S.5-13.
3. **А.Навоий. Тарихи мулуки ажам.** - https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Tarixi%20muluki%20ajam.pdf (Fevral, 2022); **А. Навоий. Тарихи анбиё ва хукамо (Ботирхон Валихўжаев ва Қобилжон Тоҳиров табдили).** -Самарқанд: Зарафшон, 1994. -68 Б. А. Navoiy, Nasoyim ul-muhabbat, Toʻla asarlar toʻplami, 10 jildlik, 10-jild, Toshkent, Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 648 bet. А. Navoiy, Majolis un-nafois, Toʻla asarlar toʻplami, 10 jildlik, 9-jild, Toshkent, Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013, 768 bet.
4. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965.
5. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1965, 13-14-бетлар
6. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Ташкент: Фан, 1965, 44-б
7. Рашидова М. Ўзбек тилидаги лақабларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Иқтисодмолия, 2008. – 72 б.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-6

8. Авлакулов Я.И. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012. – Б.19.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.
10. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 53-бет.
11. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 3-жилд, 232-бет.
12. Қадимги туркий тил луғати. Тузувчи: Қ.Каримов. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009, 112-бет.
13. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 4-жилд, 15-бет
14. <https://ziyouz.chulpon>
15. ЎТИЛ, 5 жилдлик; Тошкент, 2006, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти, 2-жилд, 432-бет.
16. <https://islamansiklopedisi.org.tr/lakap>

